



Karimov J.Sh., Amanov J.Sh., Uzkinov M.M.	Les objets de la pragmatique linguistique	205
Kilichev B.E., Masharipova S.B.	Tilshunoslikda konnotatsiya masalasining tavsifi	211
Polvonova D.A.	A descriptive overview of the emergence and evolution of the English novel	216
Khoshimkhujaeva M.M.	The historical evolution of machine translation	220
Qalbaeva Z.P.	Qaraqalpaq tilinde joqari bilimlendiriwdegi túpkilikli terminler	228
Samandarova G.E.	Raqamli transformatsiya davrida o‘zbek tili: muammolar va istiqbollar	232
Samandarova G.Y.	Ingliz, rus va o‘zbek maqollarida son komponentlarining lingvokulturologik tahlili	237
Sobirova Z.G’.	Multilingual modellarning o‘zbek tiliga moslashuvchanligi (mBERT, Xlm-RoBERTa)	245
Hamroyeva M.R.	Antroponimlar – muallifning badiiy maqsadini aks ettiruvchi lingvistik tasvir vositasi	252
Qo‘ldashev N.A., Jo‘raboieva G.S.	Allegorik ko‘chimning madaniy konnotatsiyalari	256
Bakhtiyorova M.B.	Pragmatic nature of onyms	261
Taxirova N.B.	Frazeologik birliklarning morfologik tahlili va struktur tasnifi	265
Baxtiyorova M.B., Jamilova S.S.	Nazariyadan amaliyotga: ingliz tilini o‘rganishda yetishmayotgan bo‘g‘in	269
Mardiyev B.X.	Konsept va konseptosfera termini va shaxs nomi tushunchasi	273
Omanov Sh.G’.	Modallik kategoriyasining tildagi ahamiyati	277
Jumanova Sh.S.	Linguocultural reflection of 19th-century Uzbek society in Abdulla Qodiriy’s “O‘tkan kunlar”	282
Ахмеджанова С.Дж.	Проблемы отражения гиперо-гипонимических отношений в русской лексикографии	288

INGLIZ, RUS VA O‘ZBEK MAQOLLARIDA SON KOMPONENTLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Samandarova Gulnoz Yarashovna,
Buxoro davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi
va jurnalistika kafedrasida dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
g.y.samandarova@buxdu.uz
ORCID: 0000-0002-8251-3891

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi son komponenti ishtirok etgan maqollar qiyosiy-lingvistik va lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda “one”, “two”, “three” kabi sonlarning mazmuniy yuklamasi, semantik funksiyalari va madaniy ramziyati yoritiladi. Maqollar tarkibidagi sonlar orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, axloqiy me’yorlari va ijtimoiy munosabatlarga munosabati ochib beriladi. Tarjima jarayonidagi ekvivalentlik va tafovutlar ham tahlil qilinib, maqollar orqali xalq tafakkuridagi umumiylik va milliylik uyg‘unligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: maqol, sonli maqol, ingliz maqollari, rus maqollari, o‘zbek maqollari, qiyosiy tahlil, semantika, tarjima, lingvokulturologiya, madaniyatlararo kommunikatsiya, strukturaviy tahlil.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЧИСЛОВЫХ КОМПОНЕНТОВ В АНГЛИЙСКИХ, РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦАХ

Аннотация. В данной статье проводится сопоставительный лингвистический и лингвокультурологический анализ пословиц с числовыми компонентами в английском, русском и узбекском языках. В исследовании рассматриваются семантическая нагрузка, функциональные особенности и культурная символика чисел, таких как «один», «два», «три». Через числа, употреблённые в составе пословиц, раскрываются мировоззрение народа, система ценностей, моральные нормы и отношение к социальным взаимодействиям. Также анализируются эквивалентность и различия в переводе, демонстрируется гармония универсального и национального в народном мышлении, отражённом в пословицах.

Ключевые слова: пословица, числовая пословица, английские пословицы, русские пословицы, узбекские пословицы, сопоставительный анализ, семантика, перевод, лингвокультурология, межкультурная коммуникация, структурный анализ.

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF NUMERICAL COMPONENTS IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK PROVERBS

Abstract. This article presents a comparative linguistic and linguocultural analysis of proverbs containing numerical components in English, Russian, and Uzbek. The study explores the semantic load, functional roles, and cultural symbolism of numbers such as «one», «two» and «three». Through the use of numbers in proverbs, the worldview, value system, moral norms, and attitudes toward social relationships of the respective cultures are revealed. The article also examines equivalences and differences in translation, highlighting the harmony between universality and national identity in the mentality of different peoples as reflected through proverbs.

Keywords: proverb, numerical proverb, English proverbs, Russian proverbs, Uzbek proverbs, comparative analysis, semantics, translation, linguoculturology, intercultural communication, structural analysis.

Kirish. Maqollar – qisqa, obrazli, ritmik va majoziy shaklda ifodalangan, chuqur tarbiyaviy va axloqiy mazmunga ega bo‘lgan iboralar. Ular ko‘p asrlik xalq tajribasining mahsuli sifatida nafaqat folklorshunoslarni, balki tarixchilar, etnograflar, madaniyatshunolar va boshqa soha mutaxassislarini ham doimiy qiziqtirib kelgan. Masalan, tarixchilar maqollar orqali xalq hayoti va ijtimoiy munosabatlar haqidagi ma’lumotlarni aniqlasalar, madaniyatshunolar esa ular yordamida xalqning an’ana va qadriyatlarini o‘rganadilar.

Tilshunoslar uchun esa maqollar, ayniqsa, muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ular bu qadimiy hikmat soʻzlarining leksik-semantik jihatlari, sintaktik qurilishi, pragmatik vazifalari hamda obrazlilik vositalarini chuqur tahlil qilib kelmoqda. Jumladan, baʼzi olimlar maqollarni tematik guruhlariga ajratish orqali ularning semantik xususiyatlarini, shuningdek, turli xalqlarning mentalitetidagi oʻxshashlik va farqlarni aniqlashga intilganlar. Misol uchun:

- boylik va mol-mulkka boʻlgan munosabatiga koʻra;
- qonun, adolat va tartibga nisbatan yondashuvi;
- donolik va nodonlikka oid qarashlar;
- bilim va jaholat munosabatlari;
- gender hamda oilaviy munosabatlarni aks ettiruvchi jihatlar.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Baʼzi tadqiqotchilar esa maqollarning zamonaviy ogʻzaki va yozma nutqda tutgan oʻrni, reklamadagi ishlatilishi yoki ularning til oʻrgatishdagi didaktik imkoniyatlarini oʻrganib chiqishgan. Xulosa qilib aytganda, maqollar tilshunoslikning turli yoʻnalishlarida chuqur tadqiq etilayotgan, sermazmun manba hisoblanadi.

Mazkur maqolada ingliz tilidagi maqollar orasida raqam komponenti ishtirok etgan birliklarga eʼtibor qaratildi. Tadqiqot davomida raqamlar, ayniqsa, “one” (bir) sonining yuqori chastotali ishlatilishi aniqlanib, uning semantik yuklamasi, ramziy ifodasi va turli tillardagi ekvivalentlari tahlil qilindi. Inglizcha maqollar ichidan raqamlar ishtirok etganlari tanlab olinib, ularning semantik, sintaktik, tarkibiy va lingvokulturologik jihatlari oʻrganildi.

Son komponentli maqollarning tuzilishini tahlil qilish eng koʻp uchraydigan sintaktik qoliplarni ajratib koʻrsatish imkonini berdi. Leksemalarning semantik tahlili orqali esa ularning bevosita va koʻchma maʼnolari aniqlanib, ruscha va oʻzbekcha ekvivalentlarini aniqlashga erishildi. Statistik usullar yordamida eng koʻp qoʻllanilgan raqamlar aniqlanib, ularning frazeologik faolligi solishtirildi.

Tadqiqot asosida maqollar quyidagicha guruhlashtirildi:

- ishlatilgan raqamga koʻra (one, two, three, seven va h.k.);
- maqolda nechta raqam qatnashganiga qarab;
- qarama-qarshi tushunchalarning mavjudligi (one – another, one – two);
- raqamlar turi (sanoq va tartib sonlari);
- tarkibiy tuzilishiga koʻra (bir yoki ikki qismli maqollar);
- semantik mansubligi boʻyicha (first – birinchi, boshlangʻich va h.k.).

Tadqiqotimizni ingliz maqollarida eng koʻp uchraydigan raqamlardan biri – “one” (bir) sonining tahlilidan boshlaymiz. Tahlil jarayonida “one” raqami ishtirok etgan bir qancha maqol namunalarini aniqlanib, ularning tarkibiy va semantik xususiyatlari oʻrganildi. Quyida ushbu maqollarning ingliz, rus va oʻzbek tillaridagi namunalarini tahlil qilamiz.

Masalan:

• “*One chick keeps a hen busy*” (И один цыплёнок доставляет наседке много хлопот) maqoli “Birgina farzand onaning butun vaqtini egallaydi” degan maʼnoni bildiradi.

• “*You only get one shot at life*” (Один раз живём) maqolida hayotning yagona va bebaho ekani, shuning uchun har bir inson oʻz yoʻlini erkin tanlashi, boshqalar fikriga tobelikda emas, balki oʻz qadriyatlariga sodiq holda yashashi kerakligi taʼkidlanadi.

• “*One step above the sublime makes the ridiculous*” (От великого до смешного – один шаг) maqolida esa inson har qanday vaziyatda xatoga yoʻl qoʻyishi mumkinligi, buyuk deb tan olingan shaxslar ham noxush yoki kulgili holatlarga tushib qolishlari mumkinligi ifodalanadi.

• “*One swallow doesn’t make a summer*” (Одна ласточка весны не делает) maqoli, qadimiy donishmandlik namunasi sifatida, xulosa chiqarishda shoshmaslik lozimligini bildiradi. Maqolda bahor kelishini anglatadigan yagona belgiga asoslanib xulosa chiqarish qanchalik xato ekanligi haqida ogohlantiriladi. Bu iboraning ildizi qadimgi yunon adabiyoti, xususan, Ezop masallariga borib taqaladi. Ezopning bir masalida yigit qaldirgʻichni koʻrib, bahor keldi deb oʻylab, ustidagi issiq kiyimlarini sotib yuboradi. Ammo oradan koʻp oʻtmay sovuq tushib, yigit pand yeydi. Shu sababli bu maqol turli tillarda oʻxshash mazmunda shakllangan:

- **ukraincha:** Одна ластівка неробить весни,
- **polyakcha:** Jedna jaskółka nie czyni wiosny,
- **nemischa:** Eine Schwalbe macht noch keinen Sommer,
- **fransuzcha:** Une hirondelle ne fait pas le printemps,
- **italyancha:** Una rondine non fa primavera,
- **lotincha:** Una hirundo non facit ver.

Tahlil va natijalar. Rus tilida bu maqolning ommalashuviga A. Krilovning “Mot va qaldirg‘och” (1818) nomli masali sabab bo‘lgan. Krilov ham Ezop motivlariga tayanib, bu iborani o‘z ijodiga tatbiq qilgan. Keyinchalik “birinchi qaldirg‘och” iborasi tilga kirib, muayyan voqea yoki jarayonning ilk belgilarini anglatadigan metafora sifatida mustahkamlangan.

- “*One tongue is enough for a woman*” (Женщине и одного языка хватает) maqoli esa o‘z zamonasi uchun xos bo‘lgan patriarxal ijtimoiy me‘yorlarni aks ettiradi. Tarixan bu kabi iboralar ayollarning so‘zlashuv erkinligi cheklangan jamiyatlarda keng tarqalgan bo‘lib, ularda ayol jim, itoatkor, kamtar bo‘lishi kerak, degan stereotiplar ilgari surilgan. Bugungi kunda bu maqol zamonaviy gender tengligi prinsiplari bilan zid deb qaraladi va kam qo‘llanadi.

Ikki qismli maqollar orasida ham “one” komponenti asosida tuzilgan bir qator iboralar mavjud:

- “*If one claw is caught, the bird is lost*” (Коготок увяз – всей птичке пропасть) maqoli birgina noto‘g‘ri harakat butun holatning yomonlashishiga olib kelishi mumkinligini bildiradi. U kichik xatolar yoki nojo‘ya harakatlarning jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ta’kidlaydi.

- “*It is a poor mouse that has only one hole*” (Плоха та мышь, которая одну нору имеет) maqolida esa ehtiyotkorlik va muqobil imkoniyatlarning zarurligi ko‘rsatiladi. Hayotda faqat bitta variantga tayanish xavfli hisoblanadi, har qanday inson bir nechta chora yoki imkoniyatni nazarda tutgan holda harakat qilishi kerak.

“One” soni ishtirokidagi ingliz maqollarining strukturaviy va semantik tahlili (rus va o‘zbek maqollari bilan qiyosda)

Ingliz tilidagi son komponentli maqollar orasida “one” (bir) soni ishtirokidagi birlik eng ko‘p uchraydigan va mazmunan serqirra variantlardan biri hisoblanadi. Bu kabi maqollar nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, mantiqiy fikrlash va qadriyatlar tizimi bo‘yicha ham alohida tahlilni talab qiladi. Quyida “one” soni qatnashgan ingliz maqollarining strukturaviy va semantik xususiyatlari ularning rus va o‘zbek tilidagi ekvivalentlari bilan qiyosiy asosda tadqiq etiladi.

Birinchidan, ayrim maqollar morfologik jihatdan ikki qismli bo‘lib, mazmunan nisbatan mustaqil tuzilmalarni ifoda etadi. Masalan, “*There’s only one pretty child in the world and every mother has it*” (На свете есть только один прелестный ребёнок, и он есть у каждой матери) maqoli universallik, mehr va subyektiv muhabbat g‘oyasini anglatadi. Bu maqol o‘zbek tilidagi “Qo‘ng‘iz bolasini oppog‘im der, Tipratikan bolasini yumshog‘im” shaklida ifodalangan ekvivalenti bilan uyg‘unlikda fikrning milliy shakllanishini ko‘rsatadi. Shunga o‘xshash “*There is one good wife in the country, and every man thinks he has her*” degan maqolda esa oilaviy munosabatlar, subyektiv baholash va egalik tushunchasi yoritilgan.

Ikkinchidan, ko‘plab maqollar antitezali strukturaga ega bo‘lib, “one” soni “many” (ko‘p), “more” (ko‘proq) yoki “all” (barchasi) kabi ko‘plikni bildiruvchi birliklar bilan qiyosda beriladi. Masalan, “*One lie makes many*” – (Одна ложь тянет за собой другую) yoki “*One fool makes many*” – (Глупость заразительна) kabi maqollar mantiqan shunday bir muhim g‘oyani ilgari suradiki, har qanday illat bir holatdan boshlab keng miqyosda tarqalishi mumkin.

Shuningdek, quyidagi maqollarda ko‘plik va xilma-xillik g‘oyalari bir nechta yo‘l yoki imkoniyatlar mavjudligi bilan ifodalanadi: “*There are more ways to the wood than one*”, “*There is more than one way to kill a cat*”. Rus tilida bu fikr “Свет клином не сошёлся” maqoli bilan ifodalanadi. Bu maqollar umumiy fikr – har qanday muammoning bir emas, bir nechta yechimlari borligini bildiradi.

“Bir” soni ba‘zan butunning muhim yoki zaif bo‘lagini ifodalovchi unsur sifatida ham ishlatiladi. Masalan, “*One link broken, the whole chain is broken*”, “*One scabbed sheep will mar a whole flock*” kabi maqollar turli elementlarning o‘zaro bog‘liqligi va individual kamchilik butun tizimga salbiy ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Ularning o‘zbek tilidagi ekvivalenti “Bir tirraqi buzoq podani buzar” maqolidir. Shu qatarga “*One drop of poison infects the whole tun of wine*” maqoli ham kiradi, bu maqolda salbiy unurning umumiy holatga ta’siri ifodalanadi. Rus tilidagi analogi “Капля дёгтя в бочке мёда” maqolidir.

Alohida e’tiborli jihat shuki, ayrim maqollar inkor shaklida tuzilib, “one” so‘zini “none” yoki “no” komponentlari bilan qarama-qarshi qo‘yadi. Misollar: “*One man, no man*”, “*One is no number*”, “*One body is nobody*”, “*The voice of one man is the voice of no one*”. Bu maqollar individual harakatning ijtimoiy kuchdan yiroqligini anglatadi. Ularning semantik muqobili rus tilida “Один в поле не воин” maqoli, o‘zbek tilida esa “Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘i chiqmas” maqolidir.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan maqollarni strukturaviy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, “one” sonining ishlatilishi orqali bildirayotgan **birlik, tanho mavjudlik, tanlov, yakkalikka** doir ma’nolar xalqona donishmandlik bilan chuqur talqin qilinadi. Bu maqollar tarkibida ko‘pincha universal g‘oyalar ifodalangan bo‘lsa-da, har bir xalq ularni o‘zining madaniy va ijtimoiy kontekstiga moslashtirib qo‘llagan.

Xulosa qilib aytganda, “one” komponenti ishtirokidagi maqollar semantik jihatdan boy, struktura jihatidan esa xilma-xildir. Ular orqali nafaqat til, balki jamiyatning qadriyat tizimi, ijtimoiy munosabatlar va madaniy tafakkuri ham ifodalanadi. Ingliz tilidagi bu maqollar rus va o‘zbek tilidagi ekvivalentlari bilan qiyoslanganda, har bir til va madaniyatda umumiy g‘oyalar qanday ifodalanishi, qanday obraz va metaforalardan foydalanilganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Qarama-qarshilikka asoslangan “one” va “another” so‘zli ingliz maqollarining tuzilishi va semantik xususiyatlari

Tahlil etilgan 15 ta inglizcha maqol namunasi shuni ko‘rsatadiki, ularning asosiy semantik yadrosi “one” (bir) va “another” (boshqa) so‘zlari o‘rtasidagi oppozitsiyaga qurilgan. Ushbu maqollar struktura va ma‘no nuqtayi nazaridan uchta asosiy model asosida shakllangan bo‘lib, ular kompozitsion jihatdan takroriylik va parallelizm uslublarini o‘zida mujassamlashtirgan.

1. Ot tushirilgan (ellipsis) shaklidagi bir qismli maqollar

Bu guruhga kiruvchi maqollar sintaktik jihatdan ixcham bo‘lib, ularning mantiqiy mohiyati antonimlik munosabatlariga tayanadi. Misol uchun:

- *One fire drives out another* – bu maqol “achchiqni achchiq bosadi” degan o‘zbek maqoliga mazmunan yaqin. Bu yerda “olov” metaforasi bir hodisaning yoki muammoning o‘zgasi bilan yo‘q qilinishini bildiradi. Rus tilida bu holat “Клин клином вышибают” degan maqol bilan ifodalanadi.

- *One good turn deserves another* – yaxshilik o‘ziga munosib javobni talab qiladi, degan tushunchani bildiradi. Bu ijtimoiy qarzdorlik va o‘zaro yordam tushunchasiga asoslangan. Ruscha ekvivalenti – “Долг платежом красен”. O‘zbekcha varianti – “Qarz, qarzni berish – farz”.

- *One hand washes another* – o‘zaro manfaat asosida shakllangan ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi. Ruscha: “Одна рука другую моет”; “Рука руку моет”. O‘zbekcha mazmuni: “Qo‘l-qo‘lni yuvadi”.

2. Qarama-qarshi semantik birliklarga asoslangan parallel maqollar

Bu guruhdagi maqollar tarkibida “one” va “another” nafaqat grammatik qarama-qarshilik sifatida, balki antonimik semantik juftliklar vositasida ham ishlatiladi:

- *One person’s loss is another’s gain* – kimdir uchun yo‘qotish bo‘lgan narsa, boshqasi uchun topilmaga aylanadi. Bu maqolda “loss” va “gain” semantik juftlikni tashkil qiladi. Ruslarda: “Чья-то потеря – другая нажива”; “Одному плохо – другому хорошо”; “Один теряет – другой выигрывает” kabi maqollar ishlatiladi. O‘zbeklarda: “Birining kuyi – boshqaning to‘yi”.

- *One man’s meat is another man’s poison* – insonlarning ehtiyoj va didlari o‘zaro farq qilishi mumkinligi anglatiladi. Rus tilida bu fikr “Что русскому хорошо, то немцу смерть” maqoli orqali ifodalanadi, o‘zbek tilida esa “Biri uchun asal – biri uchun zahar” degan maqol mos keladi.

- *One man’s trash is another man’s treasure* – qadriyatlar nisbiy ekanligini, har kimning qarashlari va baholari turlicha bo‘lishini bildiradi.

- *One man’s fault is another man’s lesson* – tajriba va saboq tushunchalarining ijtimoiy uzviyligini ifodalaydi.

- *One man’s breath is another’s death* – bir odam uchun hayot manbayi bo‘lgan narsa, boshqasi uchun xavfli bo‘lishi mumkin.

Bu maqollar zamirida relativistik (narsalarning qiymati, foydasi yoki xavfi subyektiv sharoitga bog‘liq) nuqtayi nazar yotadi.

3. Sintaktik-parallel konstruksiyalarga asoslangan umumlashtiruvchi maqollar

Bu turdagi maqollar tarkibida “one” va “another” o‘rtasidagi qarama-qarshilikdan tashqari, voqelikdagi universal hodisalar haqida umumiy xulosalar chiqariladi:

- *One drop of poison infects the whole tun of wine* – kichik salbiy holat butun tizimga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Ruscha variant: “Капля дёгтя в бочке мёда”. Ushbu maqolning o‘zbekcha muqobili M. Yo‘lchiyev va boshqalar hammuallifligida yozilgan “O‘zbek xalq maqollari” kitobida “Bir qoshiq zax – bir qozon oshni buzari” tarzida keltiriladi.

- *One scabbed sheep will mar a whole flock* – jamiyatdagi bitta salbiy shaxs butun guruhga zarar yetkazishi mumkin.

- *One link broken, the whole chain is broken* – har bir bo‘g‘inning ahamiyati umumiy tuzilma uchun hal qiluvchi ekanligini bildiradi.

Bu maqollar, umumiy qilib aytganda, tizimli fikrlashga asoslanadi: kichik elementlar umumiy muvozanatga ta‘sir ko‘rsatadi.

Muhokama. Yuqorida ko‘rib chiqilgan maqollar ingliz tilida sonli birliklar orqali **qarama-qarshilik, tafovut va mantiqiy umumlashtirish vositalari** sifatida keng qo‘llanilishini namoyon qiladi. Ayniqsa, “one” va “another” juftligi asosidagi maqollar ijtimoiy, madaniy va falsafiy hodisalarni metaforik tarzda aks

ettiradi. Ularda insoniy tajribaning turli jihatlari – **yordam, manfaat, ehtiyoj, xato va saboq** – til vositalari orqali semantik struktura sifatida mujassam topgan.

Rus va o'zbek tillaridagi ekvivalent maqollar esa bu g'oyalarni turli obrazlarda takrorlaydi va tasdiqlaydi, bu esa ularning umumiy universal semantik asosga egaligini ko'rsatadi.

Ingliz tilidagi “one” soni qatnashgan maqollar tilshunoslikning muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib, ular xalq tafakkuri, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, “one” komponentli maqollar o'zining soddada tuzilishiga qaramasdan, chuqur semantik ma'no yuklaydi. Bunday maqollar grammatik jihatdan xilma-xil bo'lib, ular orqali yakka shaxs, tanlov, qaror, va yagonalik kabi tushunchalar ifodalanadi. Ularning tarjimasi ko'pincha to'g'ri ekvivalentlarni topishni talab etadi, chunki har bir til o'zining madaniy va semantik kontekstiga ega. Shunday qilib, sonlar ishtirok etgan maqollarni tahlil qilish orqali til va madaniyatlararo o'xshashlik hamda farqlarni chuqurroq anglash mumkin bo'ladi.

Tengsizlik g'oyasini ifodalovchi ikki qismli maqollar

Ingliz tilidagi “one” komponentli maqollardan ayrimlari jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, adolat prinsiplarining buzilishi va kishilar orasidagi turli mavqe asosida farq qo'yilishi holatlarini tanqidiy ruhda aks ettiradi. Bu turdagi maqollar, odatda, ikki qismli bo'lib, ular orqali mavjud ijtimoiy nohaqliklar obrazli tarzda yoritiladi.

Masalan, “*One law for the rich, and another for the poor*” (Tarjimasi: “Boyga boshqa qonun, kambag'alga boshqa”) maqolida qonunlar boylar va kambag'allar uchun turlicha tatbiq qilinishi, ya'ni adolat mezonlarining iqtisodiy mavqega qarab o'zgarishi tanqid qilinadi. Ushbu maqolga rus tilidagi “*Один закон для бедных, а другой для богатых*” maqoli ekvivalent bo'lib, o'zbek tilidagi “Kambag'al o'g'rilik qilsa – o'g'ri, boy qilsa – tadbirkor” yoki “Adolat boyning eshigiga borib, kambag'alning darvozasi oldida qaytadi” degan iboralar bilan mazmun jihatdan mos keladi. Ular orqali kuchli va badavlat qatlamning afzalliklari, qonun va tartibotning ular foydasiga ishlashi g'oyasi ifodalanadi.

Shuningdek, “*One beats the bush, and another catches the bird*” (Tarjimasi: “Biri qushni haydaydi, ikkinchisi uni tutadi”) maqolida mehnat qilgan shaxs natijadan foydalana olmasligi, mehnat samarasining boshqalar tomonidan egallanishi holati ifodalanadi. Rus tilidagi mos maqol “*Один поднимает дичь, а другой её ловит*” bo'lib, bu holat o'zbek tilida “O'tin yorgan emas, uni yondirgan isinadi” tarzidagi maqol bilan qiyoslanishi mumkin.

Yana bir misol, “*One man may steal a horse while another may not look over a hedge*” (Tarjimasi: “Biri otni o'g'irlaydi, boshqasi esa devordan oshiqcha qaray olmaydi”) maqoli tengsizlik va adolatsizlikning haddan ziyod kuchaygan holatini obrazli ifodalaydi. Bu maqolda ayrim kishilarga (odatda yuqori ijtimoiy mavqega ega bo'lganlarga) istagan ishni qilish imkoniyati borligi, boshqalar esa eng oddiy harakat uchun ham jazolanishi mumkinligi ko'rsatilgan. Rus tilida bu holat “*Этот может и кобылу украсть, а тот не смеет и через забор глянуть*” degan maqolda ifodalanadi. Mazkur mazmun o'zbek xalq maqollaridan “Kambag'al o'g'irlasa gunoh, boy o'g'irlasa – hunar” kabi iboralar bilan uyg'unlikda tahlil qilinadi.

Bu maqollar orqali ingliz tili madaniyatida adolatga, tenglikka bo'lgan talab va ayni paytda mavjud ijtimoiy ziddiyatlarga tanqidiy munosabat ifoda topgan. Ular har bir davrda dolzarb bo'lgan ijtimoiy tengsizlik masalalariga xalqona va hikmatli yondashuvni aks ettiradi.

Yagona qaror va yakka shaxs faoliyatini ifodalovchi maqollar

Ingliz maqollari orasida ayrimlari shaxsning mustaqil harakati, irodaviy kuchi va individual tashabbusini targ'ib etadi. Bu turdagi maqollar ko'pincha “one” komponenti orqali yakka shaxsni umumlashtiruvchi obraz sifatida ishlatadi.

Masalan, “*One man can bring a horse to the water, but twenty cannot make him drink*” (Tarjimasi: “Bitta odam otni suv boshiga olib borishi mumkin, lekin yigirma kishi ham uni ichirishga majbur qila olmaydi”) maqolida inson erki, ixtiyoriy harakat va tashqi tazyiqqa qarshi turish qobiliyati tasvirlanadi. Rus tilidagi mos maqol “*Можно привести лошадь к воде, но нельзя заставить её пить*” bo'lib, o'zbek tilida esa bu fikr “*Zo'rlik bilan ish bitmas, ko'ngil bilan ish bitar*” degan hikmatga yaqin turadi. Ushbu maqolda tashqi yordamning chegaralanganligi, qaror qabul qilishda shaxsning ichki irodasi hal qiluvchi omil ekanligi ta'kidlanadi. Insonni biror ish qilishga undash mumkin, lekin agar u o'zi istamasa, majburlab bo'lmaydi.

Shuningdek, “*One step at a time*” (Tarjimasi: “*Har safar bitta qadam*”) maqoli orqali harakatning izchilligi, bosqichma-bosqich rivojlanish zarurligi ko'rsatib beriladi. Bu maqol ingliz tilida ko'p ishlatiladigan motivatsion ibora bo'lib, muvaffaqiyat sari yurish jarayonida sabr-toqat va rejalilik muhimligini targ'ib etadi. Rus tilida bu fikr “*Шаг за шагом*”, o'zbek tilida esa “*Qadam bosmasdan yo'l yurilmaydi*” degan ibora orqali ifodalanadi. Bu maqol insonni shoshilmaslikka, har bir ishni asta-sekin, reja

asosida, bosqichma-bosqich bajarishga undaydi. Murakkab yoki katta maqsadlar ham kichik qadamlardan boshlanadi, degan hikmat yashiringan.

Insoniylik va shaxsiy xulq-atvorni ifodalovchi maqollar

“**One good turn deserves another**” (Tarjimasi: “*Yaxshilik yaxshilik bilan qaytariladi*”) maqolida insoniy munosabatlar, minnatdorchilik va ezgulikni qadrlash g‘oyasi yotadi. Bu maqol tenglikka asoslangan ijtimoiy muloqotning muhim tamoyilini ifodalaydi: yaxshilik qilgan kishi, odatda, o‘xshash yaxshilikni kutishga haqlidir. Rus tilidagi muqobili “**Добро должно быть вознаграждено добром**”, o‘zbek tilida esa “*Yaxshilik qil – qaytmasin, yomonlik qilma – aytmasin*” yoki “*Yaxshilikka yaxshilik — insoniylik nishonasi*” kabi maqollar bilan mazmunan mos tushadi.

Bundan tashqari, “**No one is perfect**” (Tarjimasi: “*Hech kim mukammal emas*”) maqoli ham universal insoniy haqiqatni bildiradi. Bu maqol insondagi kamchiliklarni tan olish, bag‘rikenglik va kechirimlilik g‘oyalarini ilgari suradi. Rus tilidagi mos maqol “**Нет людей без недостатков**”, o‘zbek tilida esa “*Aybsiz odam bo‘lmaydi*” degan iboraga yaqin turadi.

“Ikki” raqami ishtirokidagi maqollarning qiyosiy tahlil

Qarama-qarshilik va dualizm g‘oyasi. Ingliz tilidagi “Every stick has two ends” va “Every medal has two sides” maqollari hayotdagi voqealar ikki tomonlama bo‘lishini ifodalaydi. Bu maqollar rus tilida mos ravishda “У каждой палки два конца” va “У каждой медали есть оборотная сторона” shaklida mavjud. O‘zbek tilida esa “Har bir narsaning ikki tomoni bor” yoki “Har bir ishning oqibati bor” degan iboralar bilan ifodalanadi. Mazkur maqollarda ikki soni orqali obyektiv haqiqat – voqelikning ikki tomonlama ekanligi aks ettiriladi.

O‘zaro munosabat va sheriklik. “It takes two to make a quarrel” (Для ссоры нужны два человека) va “It takes two to tango” (Танго танцуют вдвоём) maqollari o‘zaro munosabatlarda har ikki tomonning mas‘uliyati borligini anglatadi. O‘zbek tilida bu mazmunga yaqin “Yolg‘iz aybdor bo‘lmaydi”, “Qars ikki qo‘ldan chiqadi” kabi maqollar mavjud. Bu maqollar universal insoniy tajriba – ijtimoiy aloqalardagi muvozanatni ifodalaydi.

Noaniqlik va muvozanatni yo‘qotish. “Between two stools one falls to the ground” – “Kmo cudum между двумя стульями, легко может упасть” degan rus maqoli va unga mos o‘zbekcha “Ikki kemandan boshini ushlagan, g‘arq bo‘lur” maqoli hayotda ikkita imkoniyat orasida ikkilanib qolish oqibatida muvaffaqiyatsizlikka uchrashni anglatadi. Bu yerda ikki soni tanlovdagi ikkilanish, muvozanat yo‘qolishini bildiradi.

Ko‘plik va ziddiyat. “Two women in the same house can never agree”, “Two dogs over one bone seldom agree” kabi maqollar odamlar o‘rtasidagi raqobat va kelishmovchilikni ifodalaydi. Bu maqollar ruscha “Два медведя в одной берлоге не уживутся” va o‘zbekcha “Ikki qo‘chqor boshi bir qozonda qaynamaydi” degan maqollar bilan semantik jihatdan mutanosibdir. Bu yerda ikki soni muvofiqlashtirish va muvofiqlashtirishning ramziga aylangan.

Sifat va fazilatlar taqqoslanishi. “Two heads are better than one” (Одна голова хорошо, а две лучше) kabi maqol o‘zbekcha “Bir kalla kalla, ikki kalla tilla” degan iboraga juda yaqin bo‘lib, maslahatlashish, hamkorlik fazilatini ulug‘laydi. Bu maqolda ikki soni yaxshilik va ko‘makning ko‘payish ramzidir.

“Uch” soni ishtirok etgan maqollarning qiyosiy-lingvistik tahlili (ingliz, rus va o‘zbek maqollarida)

Slavyan madaniyatida, xususan, rus folklorida “uch” raqami qadimdan muqaddas va ramziy ma‘noga ega bo‘lgan. Bu holat maqollar, ertaklar va diniy-falsafiy matnlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, rus tilidagi «Бог троюку любит» (“Xudo uchlikni sevadi”) degan ibora ushbu sonning muqaddasligini bildiradi. Ingliz tilida esa bu son ko‘proq hayotiy tajriba, voqelikdagi naqshlar asosida qo‘llanadi. Quyida ushbu son ishtirok etgan maqollar qiyosiy tahlil qilinadi.

Ramziy va mifologik yondashuv. “Three things breed jealousy: a high rank, wealth, and a beautiful wife” – “Три вещи вызывают зависть: высокий пост, богатство и красивая жена” maqollari xalq tafakkuridagi qadriyatlarni ochib beradi. O‘zbek tilida “Mol, mansab, ayol – fitnaning boshidir” degan xalq naqli semantik jihatdan mos keladi.

Ayol obraziga munosabat. “Three women and a goose make a market”, “Three women, three geese, and three frogs...” kabi maqollar rus tilidagi “Три бабы – базар, четыре – ярмарка” maqoliga mos keladi. O‘zbek xalq maqollarida bunday istehzoli yondashuv kamroq uchraydi, biroq “Ayol bor joyda gap bor” degan ibora mavjud bo‘lib, ayollar o‘rtasidagi muloqotni ko‘rsatadi.

Salbiy stereotiplar va ayblovlar. “Two daughters and a back door are three arrant thieves” kabi maqollar ayol obraziga nisbatan salbiy munosabatni ifodalaydi. O‘zbek tilida bunday keskin ifodalar kamroq bo‘lib, “Qiz bola – uyda imtihon” degan maqollar ogohlikni bildiradi, lekin haqoratli emas. Qiz bola –

nafaqat farzand, balki ota-onaning, hatto butun urug'-aymoqning sha'ni, vijdoni, ijtimoiy o'lchovdagi imtihoni hamdir. U qanday tarbiya olgan bo'lsa, bu oilaning madaniyatini aks ettiradi.

Uyg'unlik va mistik raqam. Ingliz tilida "Third time's a charm" degan maqol mavjud bo'lib, rus tilidagi "Бог троицу любит" va o'zbek tilidagi "Uch bora urinsa – ish bitadi" degan iboralar bilan semantik yaqinlikka ega. Bu maqol, asosan, uchinchi urinishda omad keladi, uch narsa baraka keltiradi yoki uchinchi martada ish bitadi degan fikrni bildiradi, uch raqamining omad, mukammallik va baraka timsoli sifatida ishlatilishini ko'rsatadi.

Qiyosiy tahlil natijasida aniqlanishicha, ingliz, rus va o'zbek tillaridagi maqollarda "ikki" va "uch" raqamlari nafaqat kvantitativ birlik sifatida, balki semantik va madaniy yuklamalarga ega belgilar sifatida namoyon bo'ladi. "Ikki" soni ko'proq tanlov, qarama-qarshilik, hamkorlik yoki ziddiyatni ifodalasa, "uch" raqami ramziy, diniy va madaniy omillar bilan boyitilgan kompleks ma'noni anglatadi. Ushbu raqamlar har uch tildagi maqollarda xalq mentaliteti va qadriyatlarini ifodalovchi lingvokulturologik belgilar sifatida xizmat qiladi.

"Uch" sonining muammoli yoki salbiy konnotatsiyasi

Rus maqollarida "uch" raqami ba'zida noxushlik bilan bog'liq tarzda ishlatiladi. Masalan:

Бедa не приходит одна ("Musibat yolg'iz kelmaydi") maqolining inglizcha ekvivalenti

Bad luck comes in threes – bu yerda uchta noxush voqea ketma-ket yuz berishi ehtimoli nazarda tutiladi. Bunday mazmun o'zbek xalq hikmatlarida "Yomg'ir yog'sa, to'kib yog'adi" yoki "Qayg'u ketidan qayg'u keladi" degan shakllarda ifodalanadi.

Shuningdek, *Two is company, three is a crowd* (ruscha: *Где двое, там третий — лишний*) maqoli ham "uch" soni muvozanatni buzuvchi omil sifatida talqin qilinishini ko'rsatadi. Unga o'zbek tilida "Ko'p osh – tuzsiz, ko'p gap – ma'nosiz" yoki "Ikki kishi – suhbatdosh, uchinchi – ortiqcha" degan iboralar mos keladi.

Yana bir misol – *When three know it, all know it* (ruscha: *Что знают трое, то узнают и все*) – bu maqol sir saqlashning imkonsizligini ko'rsatadi. O'zbek tilida bunga ekvivalent tarzda "Bir og'izdan chiqqan gap, ellik og'izga yetadi", "Sir bo'lsa, bitta bilsin" kabi maqollarni keltirish mumkin.

Metaforik asosli "uch" komponentli maqollar

Quyidagi ingliz maqollarida "uch" soni noxush muhit yoki ortiqcha mehmondorlik bilan bog'liq:

- *Fish and company stink in three days*

- *Fish and guests smell after three days*

- *The best fish smell when they are three days old* (Ruscha ekvivalent: *Рыба и компания начинают плохо пахнуть через три дня*)

Bu maqollarda ortiqcha yoki uzoq davom etgan mehmondorlik ijtimoiy muhitda bezovtalik keltirishi mumkinligi uqtiladi. O'zbek tilida esa "Mehmonning izzati uch kun", "Mehmon uch kunda kimsan bo'ladi" degan maqollar ayni mazmunga ega. Bu yerda metafora – ya'ni mehmonni yomon hid beruvchi baliqqa qiyoslash – o'ziga xos universal obraz bo'lib, ingliz va rus xalqlari madaniyatida o'xshashlik topadi.

Rus folkloridagi "uch" soni: ramziy va mifologik ildizlar

Rus xalq og'zaki ijodida "uch" soni chuqur ramziy yuklamaga ega. Bu son ko'pincha ertaklarda (uch qahramon – Ivan Sarevich, qo'rqmas Ivan va h.k.), diniy qadriyatlardagi Uchlik (Otani, O'g'ilni, Muqaddas Ruhni bildiruvchi muqaddas Uchlik) bilan bog'liq holda uchraydi. Shu sababli, "Xudo uchlikni sevadi" iborasi tasodifiy emas.

Bu holat ingliz tilidagi ba'zi maqollarda ham aks etgan:

Third time's the charm – "Uchinchi urinish omad keltiradi", rus tilida bu «Бог любит троицу», o'zbek tilida esa "Uch marta urinsa, biri bo'ladi", "Bir, ikki, uch – uchdan keyin puch" kabi iboralarda o'z aksini topadi.

Xulosa. Ushbu maqolada ingliz, rus va o'zbek tillaridagi maqollarda uchraydigan 1, 2 va 3 raqamli komponentlarning semantik, struktural va madaniy jihatdan qiyosiy tahlili olib borildi. Tadqiqot davomida aniqlandiki, raqamlar turli tillarda faqat matematik qiymatni emas, balki ramziy va obrazli ma'nolarni ham ifodalaydi. Masalan, "bir" raqami ko'plab tillarda yagona, noyoblik yoki individualizmni ifodalasa, "ikki" qarama-qarshilik, tanlov yoki juftlik g'oyalarini bildiradi. "Uch" esa ko'p hollarda to'liqlik, muvozanat va mukammallik ramzi sifatida talqin qilinadi.

Uch tildagi maqollarni tahlil qilish natijasida ularning har birida raqamlarning qadimiy an'analar, diniy e'tiqodlar va xalqona tafakkur bilan bog'liq bo'lgan umumiyliklari bilan birga, o'ziga xosliklari ham mavjud ekani kuzatildi. Ingliz maqollarida raqamlar ko'proq funksional va pragmatik nuqtayi nazardan ishlatilgan bo'lsa, rus maqollarida ular ko'pincha xalqona donolikni ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek maqollarida esa raqamli komponentlar ko'proq milliy urf-odatlar, axloqiy qadriyatlar va hayotiy tajribalarga asoslanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamlar orqali ifodalangan maqollar tilshunoslik, madaniyatshunoslik va tarjima amaliyoti nuqtayi nazaridan katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ularni chuqur o'rganish turli tillararo madaniy konnotatsiyalarni tushunishda muhim omil bo'la oladi.

REFERENCES:

1. Dobrovol'skij, D., & Piirainen, E. (2005). *Figurative Language: Cross-cultural and Cross-linguistic Perspectives*. Amsterdam: Elsevier.
2. Mieder, W. (2004). *Proverbs: A Handbook*. Westport, CT: Greenwood Press.
3. Norrick, N. R. (1985). *How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs*. Berlin: Mouton de Gruyter.
4. Kunin, A. V. (1996). *English-Russian Phraseological Dictionary*. Moscow: Russian Language Publishers.
5. Mukhtorov, I. (2021). *O'zbek maqollarining leksik-semantik xususiyatlari*. Tashkent: Fan nashriyoti.
6. Saidova, D. R. (2019). *Cultural Stereotypes and Gender Aspects in Proverbs: A Contrastive Analysis*. *Journal of Uzbek Linguistics*, 4(1), 58–65.
7. Dundes, A. (1981). *The moral lore of folklore*. *Journal of American Folklore*, 94(371), 17–26.
8. Samandarova G.Y. *Fundamentals of folk proverbs formed on the basis of the lexical-spiritual group of insects*. *Current research journal of philological sciences*. 2021. Volume-II. ISSN-2767-3758. *sjif* 2021.:5.823.[doi -10.37547/crjps](https://doi.org/10.37547/crjps). Master Journals United States Of America.<https://masterjournals.com/index.php/crjps> –P.39-42. (Impact factor: SJIF=5.823)
9. Samandarova G.Y. *Ideological movement of legends and traditions in the novel "shaytanat" by Tohir Malik*. *International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 04, volume 84 published April 30, 2020*. –P.1014-1016. (Impact factor: SJIF=5.423)
10. Samandarova G.Y., Yusupova A.Sh. *Specific characteristics of paremas formed on the basis of "Insect" LMG in a simple sentences // Best journal of innovation in science, research and development*. Volume 2 No 6 (Jun 2023). ISSN: 2835-3579. (Impact factor: SJIF=9.1)
11. Samandarova G.Y., Zaripova N.J. *Some characteristics of uzbek paremas' formed on the basis of the lexical sentence group "insect" in the form of a compound sentence// Vol. 2 No. 5 (2023): International Scientific Conference "Innovative Trends In Science, Practice And Education"*. Munic, Germany.<https://doi.org/10.5281/zenodo.7816423>–P.59-67.
12. Bozorov Z. A. *"Exceptional role of motives and needs within the formation process of civic culture in students' community."* *Journal of Advanced Zoology* 44 (2023): 3236-3244. <https://jazindia.com/index.php/jaz/article/view/1595>
13. Ashurovich, Bozorov Zayniddin. *"Great Oriental Intellectuals about Civil Culture."* *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal* 2 (2023): 21-24. <https://innosci.org/wos/article/view/968>
14. Bozorova G. *Formation of abbreviations in medical terminology in uzbek language // Центральноазиатский журнал образования и инноваций*. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 86-89.
15. Zayniddinovna B. G. *Distinctive features of pleonasms in political speech // International scientific-online conference: Intellectual education technological solutions and innovative digital tools*. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 168-174.